

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIY ASAR TILINING USLUBIY VA VAZIFAVIY JIHLARINING O‘RGANILISHI**Isokulov Abdullo Oblokul o‘g‘li,***Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasida o‘qituvchisi.**E-mail: abdulloisokulov@gmail.com***DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18765639>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilining uslubiy va vazifaviy jihatlari o‘rganilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, badiiy asar tilining lingvistik va lingvopoetik tahlili, shu bilan birga tadqiqot yo‘nalishlari: lingvistik, lingvopoetik, poetik fonetika, leksikologiya, morfemika, semantika, sintaksis hamda badiiy matnning ekspressiv, kommunikativ va akkumulyativ vazifalari tasavvuf shoiri Saidmuhammad Yo‘ldosh ibn Davlat ijodi misolida tadqiq etiladi. Badiiy tilni yaxlit o‘rganish va tilshunoslikning dolzarb masalalarini yoritishga xizmat qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar atroflicha tahlil qilinadi. Bundan tashqari badiiy asar til vositalarining badiiy-estetik maqsadlarga xizmat qilishini tahlil etilib, lingvopoetik nazariyasini rivojlantirish bo‘yicha fikrlar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Badiiy asar tili, lingvopoetik, uslubiy tahlil, vazifaviy jihatlari, poetik fonetika, poetik leksikologiya, poetik semantika, poetik sintaksis.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению стилистических и функциональных аспектов языка художественного произведения в узбекском языкознании, лингвистическому и лингвопоэтическому анализу языка художественного произведения, а также исследовательским направлениям: лингвистической, лингвопоэтической, поэтической фонетике, лексикологии, морфемике, семантике, синтаксису, а также экспрессивной, коммуникативной и аккумулятивной функциям художественного текста на примере творчества поэта-суфия Саидмухаммада Юлдаша ибн Давлата. Подробно анализируются лингвистические и экстралингвистические факторы, служащие целостному изучению художественного языка и освещению актуальных вопросов языкознания. Кроме того, анализируется, как языковые средства художественного произведения служат художественно-эстетическим целям, и выдвигаются идеи о развитии лингвопоэтической теории.

Ключевые слова: Язык художественного произведения, лингвопоэтический, стилистический анализ, функциональные аспекты, поэтическая фонетика, поэтическая лексикология, поэтическая семантика, поэтический синтаксис.

Annotation. This article is devoted to the study of the stylistic and functional aspects of the language of a work of art in Uzbek linguistics, the linguistic and linguopoetic analysis of the language of a work of art, as well as research areas: linguistic, linguopoetic, poetic phonetics, lexicology, morphemics, semantics, syntax, and the expressive, communicative and accumulative functions of the artistic text are studied on the example of the work of the Sufi poet Saidmuhammad Yuldash ibn Davlat. Linguistic and extralinguistic factors serving the holistic study of literary language and the illumination of topical issues of linguistics are analyzed in detail. In addition, the analysis of the service of linguistic means to artistic and aesthetic purposes of a work of art is carried out, and ideas for the development of linguopoetic theory are put forward.

Keywords: Language of a literary work, linguopoetic, stylistic analysis, functional aspects, poetic phonetics, poetic lexicology, poetic semantics, poetic syntax.

Kirish. Badiiy adabiyotda yozuvchi va shoirlarning asarlarini o‘rganish hamda tadqiq qilish nafaqat adabiyotshunoslik balki tilshunoslik sohasining ham tadqiqot markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham badiiy asar tili haqidagi soha tilshunoslikka ham,

adabiyotshunoslikka ham oid bo'lib, ikki sohaning kesishganidan hosil bo'lgan, lekin ularning har ikkalasidan ham farqli jihatlar mavjud. Badiiy asar tilining amaliy xususiyati uni lingvistik tahlil qilishda namoyon bo'lsa, Asarni lingvodidaktik tahlil qilish usullarida, uning badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishda stilistik va funksional jihatlari yuzaga chiqadi.

Badiiylik tushunchasi nafaqat badiiy adabiyot uchun, balki san'atning barcha turlarini qamrab oladi. Masalan, "San'at" so'zi jonli tilimizda nechog'lik keng ma'noda qo'llanmasin, tabiiyki, bizni uning lug'aviy ma'nosi emas, istilohiy ma'nosi qiziqtiradi. Istilohiy ma'noda "san'at" deganda insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi o'laroq vujudga kelgan narsalar jami tushuniladi [3.56]. Shunday ekan badiiylik san'atning barcha turlari nafaqat adabiyotshunoslikda, balki tilshunoslik uchun ham birdek muhimdir, chunki badiiy asarlarda so'z hayot voqeligini aks ettirish uchun material, qahramonlarning ruhiy ichki kechinmalarini yuzaga chiqaruvchi vosita, shu bilan birga badiiy so'z orqali kishilarning ongiga ta'sir etib, ularda hayotning muayyan voqeligi, insoniy kechinma, tuyg'ulari badiiy til orqali tasavvur uyg'otishga bevosta yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy asarning lingvopoetikasini o'rganish o'zbek tilshunosligida M.Yoqubboyevaning "O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari" doktorlik dissertatsiyasida, D.Jamoliddinovaning "Badiiy nutqda parantez birliklarining semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari" nomzodlik dissertatsiyasida, F. Ibragimova "Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, B.Yo'ldoshevning "Hozirgi o'zbek tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari" doktorlik dissertatsiyasi, M.Yo'ldoshevning "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" doktorlik dissertatsiyasi, G.Muhammadjonovaning "80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, N.To'laganova "Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy san'atlarning lisoniy-uslubiy tahlili" nomzodlik dissertatsiyalarida [6.07] va boshqa ilmiy tadqiqotlarda badiiy tilning lingvopoetik xususiyatlari turli jihatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganish hamda tadqiq qilish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Lingvistik yo'nalish: tilning muayyan tarixiy davridagi holati, ayni holatga mos bo'lgan badiiy xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgarishlar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli holatlari ilmiy talqin etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat asosiy dalil bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu qadim tarixga ega va qadimiy lingvistik an'ana sifatida rivojlanib kelmoqda.

- Lingvopoetik yoʻnalish: Badiiy asar tilini oʻrganishning asosiy maqsadi esa bulardan ancha farqlidir. Bu oʻrinda uning farqli jihati tilning turli vazifalarga egaligidadir. Tilshunoslikka oid zamonaviy darsliklarda asosan lingvopoetik tahlilning quyidagi jihatlari tahlil qilinadi:

- Kommunikativ nuqtayi nazardan tahlil - tilning kishilar oʻrtasidagi aloqa vositasi ekanligi va shu jihatlarni roʻyobga chiqaruvchi fonetik, leksik, vositalar.

- Badiiy asarning ekspressivlik jihatidan tahlil - turli fikr va his-tuygʻularni ifodalashligi.

- Badiiy asarning konstruktiv aloqalari jihatidan tahlil – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda jarayonini belgilab berish vazifalari.

- Badiiy asarning akkumulyativ – ijtimoiy tajriba va bilimlarni toʻplash, saqlash, tahlil qilish, tahrirlash vazifalaridir [1.32].

Tahlil va natijalar. Badiiy asarni lisoniy tahlil qilish jarayonida nafaqat yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, badiiy asarning emotsional-ekspressiv ifoda semalaridan, qavariq holda reallashgan leksik birliklarni qoʻllash mahorati va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish badiiy asarning lingvopoetik jihatdan tadqiq qilishning ustuvor yoʻnalishlari sirasiga kiradi. Masalan:

Boʻlay desang agar xurram, duvo ol ota-onangdin,
Yotarsan goʻrda ham begʻam, duvo ol ota-onangdin.
Xudo qilgʻay sani rahmat, boʻlur joying sani Jannat,
Icharsan shaxd ila sharbat, duvo ol ota-onangdin [4.159].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan tasavvuf shoiri Saidmuhammad Yoʻldosh ibn Davlat ijodidan olingan ushbu parchadagi “boʻlay desang” soʻzi hamda “ota-onangdin” soʻzlarining misrada ohangdosh boʻlib kelishi hamda “xurram” soʻzining qoʻllanilishi baytdagi ohangdorlikni taʼminlashga xizmat qiladi, ikkinchi misradagi “begʻam” soʻz leksik jihatdan “xurram” soʻziga zid kelishi emotsional-ekspressivlikni taminlashga yordam beradi. Baytning mantiqiy davomi boʻlgan “Xudo qilgʻay sani rahmat, boʻlur joying sani Jannat” misrasini qoʻllanilishi yuqori ohangdorlikni taʼminlaydi. Ushbu toʻrt misradagi “Xurram, begʻam, rahmat va sharbat” soʻzlari semantik jihatdan qavariq holatda reallashuvi misralardagi qofiyalanish bilan birga shoirning semantik maqsadlarini ifodalashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari tasavvuf istilohlari: “Xudo va Jannat” soʻzlari qoʻllanilishi yuqoridagi fikrlarimizni nechogʻlik toʻgʻriligini koʻrsatadi.

Badiiy asarlarda, ayniqsa, sheʼriy matnlarda badiiy asar tilining uslubiy va vazifaviy jihatlarni oʻrganishda asar tilidagi maʼnodosh, shakldosh, zid maʼnoli, koʻp maʼnoli, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgariizmga oid soʻzlarning lingvopoetik tadqiq etish ham asosiy obyekt sifatida qamrab olinadi. Shu oʻrinda “lingvistika” va “poetika” atamalari, ularning tutashgan nuqtalari yuzasidan biroz

fikr yuritishni lozim topdik. Qadimgi antik davr faylasufi Arastu o'zining mashhur "Poetika" asarida poetik san'at – she'riy navlar (janrlar) xususida to'xtalib, poetika - poeziya san'ati haqida so'z yuritgan. "Til va fikr" bobida esa nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorikaga aloqadorligi ta'kidlanib, uning nutq tuzish bilimlari bilan bog'liqligi e'tirof etiladi [7.23]. To'g'ri, qadimgi fan tarixida ritorika alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bizningcha, hozirgi kun poeziyasi umuman badiiy asar tilini tadqiq qilishda poetikani ritorikadan ajratib bo'lmaydi. Chunki har bir til hodisasi nutqiy vaziyatga o'tar ekan, insonning tasavvuri, ruhiyati, hissiyotlari bu nutqiy bog'lanishga o'zaro aloqador holda ko'chadi. Ayniqsa, XVIII-XX asr boshlaridagi Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor yo'nalishida ijod qilgan tasavvuf shoirlar ijodida bu yaqqol seziladi. Masalan:

Kimki tolibdur aning ganji nihoni tavbadur,
Anglag'il, mulki badaning posboni tavbadur.
Mashrabi shaydoyi ishq devonadindur bul suxan,
Murdalarning borho jismida joni tavbadur [4.100].

XX asr tilshunosligida badiiy asar tili tadqiqiga keng e'tibor berilgani bois, ritorika va poetika tushunchalarini birlashtirgan holda badiiy asardagi voqelik tasvirini har tomonlama, chuqur va yaxlit holda tadqiq etishni o'zida aks ettiruvchi "lingvopoetika" atamasi paydo bo'ldi.

Bugungi kun filologiyasining dolzarb vazifalaridan biri o'zbek lingvopoetika-sining nazariy asoslarini ishlab chiqish, aniqrog'i, bir tizimga solish, uning tadqiq usullari va vositalarini, tadrijiy takomilini yaxlit holda o'rganish barcha tushunchalarni guruhlashtirish va shu yo'l bilan badiiylikni ta'minlovchi unsurlarni ham til jihatdan tadqiq etishdan iborat. Hozirgi lingvopoetika yo'nalishida badiiy asarlarni quyidagi yo'nalishlarda o'rganish va tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi:

Poetik fonetika. Bunda badiiylikni ta'minlovchi unsurlar sifatida tovushlar tadqiq etiladi. Ya'ni uslubni yaratishda o'ziga xos tovush o'zgarishlari, urg'uning berilishi, ularning o'quvchi tasavvuriga ta'siri va boshqa omillar e'tiborga olinadi. Masalan, she'riyatdagi vazn talabiga ko'ra tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovushlarning o'rin almashishi kabilar kabi fonetik hodislar kiradi. Bu kabi o'zgarishlar nafaqat vazn talabi, balki estetik xususiyatlardan kelib chiqib ham amalga oshiriladi. Misol uchun Ibn Davlatning "Qodiro, qudrat..." deb boshlanuvchi quyidagi baytda aynan shu kabi holatni ko'rishimiz mumkin:

Qodiro, qudrat bilan qilding bu Odamni bino,
Obi rahmat birla yuvg'il, botinim topsun jilo.

Ushbu baytdagi undalmadagi "Qodiro" so'zidagi "o" tovushi vazn talabidan kelib chiqib alliteratsiya san'atini hosil qilish bilan birga ohangdorlikni oshirish vazifasini ham bajarishga xizmat qilgan. Bu kabi o'zgarishlarning maqsadini lingvopoetik tahlil ochib beradi.

Poetik leksikologiya. Bu yoʻnalishning tadqiqot koʻlami nihoyatda keng boʻlib, oʻzbek tilshunosligida bu sohada koʻpgina ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, biror asar yoki ijodkor asarlarining tilida sinonim, omonim iboralar yoki chegaralangan leksika (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...), oʻz va oʻzlashgan soʻzlar qatlamining ishtiroki kabi masalalar bir qancha asarlar tili yuzasidan tahlil qilingan boʻlib oʻzbek lingvopoetikasida eng koʻp tadqiqotlar shu sohada olib borilgan.

Poetik morfemika. Bu nafaqat morfemika, balki morfologiya va soʻz yasalihi boʻyicha tahlillarni ham oʻz ichiga olgan nihoyatda keng yoʻnalish boʻlib, qiziqarli tadqiqotlarga sabab boʻladi. Masalan, asar matnida oʻziga xos tarzda qoʻllangan har bir affiksning tahlili ham tarixiy, ham tavsifiy, ham qiyosiy jihatdan oʻrganiladi.

Poetik semantika. Bunda soʻzlarning turli maʼno qirralarini ifoda etishi, ayniqsa, koʻchma maʼnoda qoʻllanishi tadqiqida ham til boyligi, ham uslubning oʻziga xosligini koʻrsatib beruvchi vositalarga diqqat qaratiladi. Bu yoʻnalishni bevosita badiiy sanʼatlar, tasvir vositalari: sifatlash, oʻxshatish, mubolagʻa va boshqa tahlillarni oʻz ichiga oladi.

Poetik sintaksis. Bu yoʻnalishda matnning gap qurilishi tadqiq etiladi. Unda lingvopoetik tahlil formal sintaksis, mazmuniy sintaksis, kommunikativ sintaksis va matn sintaksisi bilan bogʻliq holda olib boriladi [8.315].

Hozirgi oʻzbek tilshunosligida badiiy matnlarning poetik nutqini tahlil etish usuli 2 xil boʻlib sheʼriy va nasriy matn asosida amalga oshiriladi. Chunki bunda sheʼriy nutqni shakllantiruvchi unsurlarga, sheʼriy nutq tuzilish tizimiga, gap boʻlaklari tartibiga, lafziy va maʼnaviy sanʼatlarning qoʻllanishiga eʼtibor berish kerak boʻladi. Shoirning gʻoyasi va maqsadini aniqlashda gap boʻlaklarining shaklan va mazmunan ifodalanish usullarini, emotsional-ekspressivlikni taʼminlovchi barcha vositalarni tahlil etish zarur. Bu usullar nasriy nutqda ham gaplar va gap boʻlaklari tartibi, shakliy va mazmuniy mutanosiblik kabilarga eʼtibor berish tadqiqotning muhim taraflarini koʻrsatadi. Bunda tadqiqotchi badiiy matnning formal-grammatik boʻlinishi, aktual boʻlinishi, mantiqiy urgʻu, presuppozitsiya kabi hodisalar orqali poetik maʼnoni ochib berishga diqqat qaratiladi. Umuman olganda bu yoʻnalishda ilmiy ishlarni olib borish yangi struktural poetika tushunchalarini shakllanishga bevosita aloqador hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, badiiy asarning lingvopoetik tadqiq etish asoslarini, ularning nomlanishini bir koʻrinishga keltirish, olib borilayotgan tadqiqotlarning tilimizning boyligini koʻrsatish, filologiyaning yaxlitligini taʼminlash bilan bir qatorda, badiiy asarlarni ijodkorlar misolida ijodiy merosini oʻrganish, buning uchun esa yetuk tilshunos va adabiyotshunos mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qilishiga eʼtibor qaratish zarur. Yuqoridagi fikrlar asosida yaxlit xulosa qilishimiz mumkinki matn tilshunoslik nuqtayi nazaridan barcha lingvistik xususiyatlarni oʻzida mujassam etgan murakkab tuzilmadir va u tilshunoslikning barcha sohalarining asosiy oʻrganish obyektlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. Norboev. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 1996.
2. X. Doniyorov, B. Yo'ldoshev. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1998.
3. D. Quronov. *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Saidmuhammad Yo'ldosh ibn Davlat. Devon. Toshkent, "Tamaddun" nashriyoti, 2019. -208 b.
5. E.O'rinboyeva. Lingvopoetika – tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida (maqola) O'zbek va tojik adabiyotida zullisonaynlik an'anasi (Ilmiy-amaliy konferensiya), 2022.
6. D. Sharipova. Ingliz va o'zbek adabiyotida ramzlarning lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro, 2025. – 47 b.
7. S. Akramova. Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetik tadqiq tamoyillari (maqola). Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro konferensiya. 2023. № 10.
8. Y. Jumayeva. So'z o'yinlarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Educational Research in Universal Sciences (ilmiy jurnal) 2023. № 2. - 315 b.

